

SODDA GAP SHAKLIDAGI “HASHAROT” LMG ASOSIDA SHAKLLANGAN
PAREMALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7838892>

Zaripova Nilufar Juma qizi

BuxDU magistranti.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining nodir namunasi sanalmish paremalarning tuzilishiga ko'ra sodda gap shakliga teng keluvchi “Hasharot” lug'aviy manoviy guruhi asosida shakllangan turi tahlil etilgan. Mazkur ma'noviy guruh asosida shakllangan paremalar 4 guruhga bo'lib tasniflangan.*

Kalit so'zlar: *Maqol, parema, xalq og'zaki ijodi, sodda gap, “Hasharot” lug'aviy ma'noviy guruhi, o'z ma'no, ko'chma ma'no.*

Maqollarni hayot qomusi, xalq og'zaki ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Shuningdek, maqollar o'z ijodkori bo'lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og'zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir.

Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me'yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o'z in'ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin. Maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Albatta, biz ulardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ma'lumki, maqollar o'z tuzilishi hamda semantikasiga ega va asar matniga tayyor til materiali sifatida kiritiladi: o'z strukturasi ko'ra, mustaqil jumla – gapni hosil qiladi, semantikasiga ko'ra, mantiqiy hukmni anglatib keladi. O'zbek tilida maqol va matallarning sintaktik qurilishi, maqollardagi gap va so'z birikmalarining asosiy ko'rinishlari, ularning morfologik, sintaktik va ba'zi ma'noviy-uslubiy xususiyatlarini yoritishga qaratilgan; xalq maqol va matallarining lug'aviy xususiyatlari adabiy til va dialektlarning leksik doirada o'rganilgan.

H.Berdiyev va R.Rasulovlar paremalarni ikki xil tasniflashgan:

a) strukturasiga ko‘ra; b) semantik xususiyatiga ko‘ra.

Shunga ko‘ra, tuzilishiga ko‘ra maqollar ikki turga bo‘linadi: sodda va murakkab.

Sodda maqol-matallar birgina predikativ munosabatni ifodalaydi. Ular gap bo‘laklarining ishtirokiga ko‘ra ham ikki elementidan yetti elementligacha bo‘lishi mumkin. Demak, sodda hikmatlar tuzilishi jihatidan eng kamida ikki elementdan (gap bo‘lagidan) tuzilgan bo‘ladi va tugallangan fikr ifodalaydi. Har bir maqolda ikkita gap bo‘lagi bo‘lishi va ular ikki intonatsion markazga bo‘linishi shart.

Paremalarni o‘rganish jarayonida ular orasida hasharot lug‘aviy ma‘no guruhida asosida shakllanganlari ham talaygina ekanligining guvohi bo‘ldik. Aynan mana shu ma‘noviy guruh zahirida shakllangan maqol va matallarni tuzilishiga ko‘ra guruhlarga ajratdik.

Sodda maqol-matallarni nechta gap bo‘lagidan tashkil topganligiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

a) ikki bo‘lakli: Oltin zanglamas (Hasharot LMG asosida yuzaga kelgan sodda maqollar orasida ikki gap bo‘lagidan tashkil topgan maqollarni uchratmadik);

a) uch bo‘lakli: Sirkadan bit yaxshi; Burgut chivin tutmas;

v) to‘rt bo‘lakli: Mevaning yaxshisini qurt yeydi;

g) besh bo‘lakli: Mitaning yomoni tegirmondan butun chiqar;

d) olti bo‘lakli: Bir tomchi suv chumoliga daryo ko‘rinar;

e) yetti va undan ortiq bo‘lakli: Chayon cho‘kka tushganda o‘z nishini o‘ziga sanchar.

Paremiologik lug‘atlarda hasharot lug‘aviy ma‘noviy guruhi asosida shakllangan o‘zbek xalq paremalarning struktur yasalishi va grammatik jihatlariga ko‘ra sodda gap shaklida mavjud paremalarning quyidagi turlarini uchratish mumkin:

1. Ikki mantiqiy markazdan iborat bo‘lib, grammatik jihatdan bitta gapga teng keluvchi paremalarda birinchi mantiqiy markaz ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi:

Kalla osgan kuni itdan,

Kir yuvgan kuni bitdan qutilasan.

Chayonning kasbi—chaqish.

Chayonning kasbi-nish urmoq.

Qurtning davosi—qaynoq suv.

2. Ikki mantiqiy markazdan iborat bo‘lib, grammatik jihatdan bitta gapga teng keluvchi paremalarda ikkinchi qismi mantiqiy markaz ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi:

Bit ham bo‘lsa panoh.

O‘rgimchak ham o‘z uyim der.

Chivin ham anqovning og‘zini poylar.

Chumolining iniga qurbaqa chivin so‘rab kelibdi.

Bir tomchi suv chumoliga daryo ko‘rinar.

3. Ikki mantiqiy markazdan iborat bo'lib, grammatik jihatdan bitta gapga teng keluvchi paremalarda har ikkala mantiqiy markaz o'z ma'nosida qo'llanadi (3-rasm):

Chaqinib turgan chayondan,

Biqinib yotgan ilon yomon.

Bolaning erkasi—bitning sirkasi.

Ari chaqqan pashshadan ham qo'rqadi.

Och zuluk qattiq tishlaydi.

4. Ikki mantiqiy markazdan iborat bo'lib, grammatik jihatdan bitta gapga teng keluvchi paremalarda har ikkala mantiqiy markaz ko'chma ma'noda qo'llanadi (4-rasm):

Jiblajibonning es-hushi pashsha tutishda.

Qaramagan boshni bit yeydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bozorov Z.A International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions” “Imperial College London” 2021-2022. 165-169 б.

2. Bozorov Z.A. Essence, structure and functions of civil culture. International engineering journal for research & development. Published in Volume 6 Special Issue , January 2021 of IEJRD E-ISSN: 2349-0721 , Peer Reviewed & Referred Journal.

3. Bozorov Z.A. The role of motivation, needs and interests in the formation of civil culture of future medical workers. ACADEMICIA an international multidisciplinary research journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 11, Issue 3, March 2021. Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 DOI: 10.5958/2249-7137.2021.00835.1

4. Bozorov Z.A. The system of formation of civic culture among students in higher educational institutions. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 455-458. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-01-81-81> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> Scopus ASCC: 3304. (2020).

5. Bozorov Zayniddin & Samandarova Gulnoz. (2020). Ideological movement of legends and traditions in the novel “Shaytanat” by Tohir Malik. Theoretical & Applied Science. 84. 1014-1016. 10.15863/TAS.2020.04.84.187.

6. Bozorova G. Concerning some pleonastic and tautological constructions //Центр научных публикаций (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

7. Bozorova G. Tautology and pleonasm: synchronic and diachronic views //Конференции. – 2021.

8. Bozorova G. Z. Ortiqchalik tamoyilining jahon tilshunosligida organilishi // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 9. – С. 945-951.

9. Bozorova Gulmira Zayniddinovna. Distinctive features of pleonasms in political speech // International scientific-online conference: Intellectual education technological solutions and innovative digital tools. Vol. 2 No. 14 (2023): - P. 168-174.
10. Kadyrovna A. M., Zayniddinovna B. G. Description of Events Which is Near to Pleonasm //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – Т. 5. – С. 281-285.
11. Samandarova G.Y. Socially conditioned meanings of paremas formed on the basis of the lexical spiritual group "insects". *Gospodarka i innowacje*. Volume: 22 | 2022. –P. 443-446.
12. Samandarova, G. Y. (2021). Fundamentals of folk proverbs formed on the basis of the lexical-spiritual group of insects. *Current research journal of philological sciences*, 2(05), 39–42. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-02-05-11>
13. Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар. – Т.: Фан, 1977.
14. Бозорова Г. З. Идейная направленность сказаний и преданий романа "Шайтанат" Тахира Малика //Молодой ученый. – 2014. – №. 9. – С. 532-534.
15. Бозорова Г. Илмий нутқда учрайдиган айрим плеонастик бирликлар таҳлили //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 327-331.
16. Бозорова Г.З. ОАВда учрайдиган плеонастик бирликларнинг лингвопрагматик хусусиятлари // Interpretation and researches. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oavda-uchraydigan-pleonastik-birliklarning-lingvopragmatik-hususiyatlari> (дата обращения: 10.04.2023).
17. Жўраева Б. Мақолнинг ёндош ҳодисаларга муносабати ва маъновий хусусиятлари. – Т.: Фан, 2007. –66 б.
18. Камол Ф. Қўшма гапларга доир масалалар.- Т.:1955.
19. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи.- Т.: Ўзбекистон, 2002.-Б.207.
20. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш.,Искандарова Ш.,Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди, 2001, -164 б.
21. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. – Москва: Рус тили, 1981. – 631 бет.
22. Ўзбек халқ мақоллари. 1-жилд. А-О. – Т.: Фан, 1987. – 368 бет.
23. Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Маънолар махзани (Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати). – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 212
24. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. - Т.: Ўқитувчи, 1984.